

Yevropa Ittifoqida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2026-yilning I choragida 3,2 foizga qisqardi.

// 26.06.2026

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/yevropa-ittifoqida-kimyo-mahsulotlari-ishlab-chiqarish-hajmi>



Cefic ma'lumotlariga ko'ra, hozirda tarmoq tiklanish bosqichida emas, balki beqaror rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Yil boshida sanoat ishlab chiqarishida ozgina o'sish kuzatilganiga qaramay, Yevropa kimyo sanoati ishlab chiqarish bazasining yanada qisqarishi xavfi saqlanib qolmoqda.

Ishlab chiqarish hajmining pasayishi ko'plab segmentlarda qayd etildi. Jumladan, asosiy organik moddalar ishlab chiqarish 12,7 foizga, polimerlar 9,2 foizga, bo'yoqlar va pigmentlar 8,0 foizga, o'simliklarni himoya qilish vositalari 4,7 foizga qisqardi. Shu bilan birga, boshqa turdagi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish 2,2 foizga, kosmetika mahsulotlari esa 1,3 foizga oshdi. Yevropa kimyo sanoatidagi pasayishning asosiy omillari sifatida talabning sustligi, ishlab chiqarish quvvatlarining qisqarishi, jahon bozorida raqobatning

kuchayishi hamda energiya resurslari narxining yuqoriligi qayd etilmoqda.

Hisobotda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi ham pastligi qayd etilgan. Ayni paytda ushbu ko'rsatkich taxminan 74 foizni tashkil etib, uzoq yillik o'rtacha darajadan ham, Yevropa Ittifoqi bo'yicha umumiy sanoat ko'rsatkichidan ham past hisoblanadi.

Shu bilan birga, Yevropa kimyo mahsulotlari eksporti 4,6 mlrd yevroga (12,4 foiz), importi esa 4,8 mlrd yevroga (15,7 foiz) qisqargan.

Qayd etilishicha, Yevropa kimyo sanoatiga kiritilgan investitsiyalar ham keskin kamaygan. Xususan, 2022-2025-yillar davomida sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar 80 foizga qisqarib, 1,5 mlrd yevrogacha tushgan.